




## Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-mart)

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi, trln.so'm, o'zgarish sur'ati, % da



- B** Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** Ishlab chiqaradigan sanoat
- D** Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-mart oylarida viloyat sanoat korxonalari tomonidan 2217,1 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 110,7 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 94,6 % ni tashkil etdi.



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 11 martaga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 2,2 martaga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 30,0 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 8,9 % ga o'sishi kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,1 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,004 % ni tashkil etdi. 2020-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2096,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 94,6 % ni tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushini avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 42,5 %, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 27,7 %, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish 15,8 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



**Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 42,5 %**




**To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 27,7 %**



**Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish ulushi -15,8 %**




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoati**



Joriy yilning yanvar-mart oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 105,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,742 %)ni tashkil etdi. Shu bilan birga ishlab chiqarish indeksi 130,0 % ni tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,678 % ni) tashkil etdi.

Mazkur tarmoqda eng yuqori ulushni, suv yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash 62,5 %, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish 37,0 % ni tashkil etdi.





**Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati)da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (natura shaklda)**

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	Farqi +/-
<b>Gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln kVts:</b>	68,8	34,8	34,0
<b>Issiqlik energiyasi – ming Gkal:</b>	58,7	71,1	- 12,4
<b>Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz) – dona:</b>	12970	10353	2617
<b>Maxsus engil avtomobillar – dona:</b>	1470	1985	- 515
<b>Aroq – ming litr:</b>	104,8	208,0	- 103,2
<b>Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr:</b>	4,2	5,9	- 1,7
<b>Tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – ming litr:</b>	94,0	300,0	- 206
<b>Yumshoq bug'doy va spelta uni – tonna:</b>	23626,8	19677,9	3948,9
<b>Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 gr. (buxanka) – tonna:</b>	0,0	319,4	- 319,4
<b>Milliy non (yopgan non) – tonna:</b>	0	138,1	-138,1
<b>Tozalangan o'simlik yog'i – tonna:</b>	2043	5810,0	- 674
<b>Xo'jalik sovuni – tonna:</b>	1004,7	2717,0	- 1712,3
<b>Paxta tolasi – tonna:</b>	19181,6	26751,0	- 7569,4
<b>Paxta chigiti – tonna:</b>	30483,1	42468,0	- 11984,9

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, issiqlik energiyasi 12,4 ming gkalga, maxsus engil avtomobillari 515 donaga, aroq 67,2 ming litrga, tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari 206,0 ming litrga, birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 gr. (buxanka) 319,4 tonnaga, milliy non (yopgan non) 138,1 tonnaga, tozalangan o'simlik yog'i 3767,0 tonnaga, xo'jalik sovuni 1712,3 tonnaga, paxta tolasi 7569,4 tonnaga, paxta chigiti 11984,9 tonnaga kamaygan.

Yuqoridagilardan tashqari qolgan mahsulotlar ishlab chiqarish oshganini ko'rish mumkin.

**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi  
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**



2019-yil yanvar-mart oylarida o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 44,0 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2020-yil yanvar-mart oylarida bu ko'rsatkich 43,1 foizga, quyi texnologiyali ishlab chiqarish 47,7 foizdan 45,3 foizga kamaygan, o'rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 4,2 foizdan 6,0 foizga oshganini ko'rish mumkin.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 1,8 mlrd.so'mlik (2019-yil yanvar-mart oylarida 2,0 mlrd.so'm), o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 956,2 mlrd.so'mlik (803,0 mlrd.so'm), o'rta-quyi texnologiyali tarmoqda 133,5 mlrd.so'mlik (76,7 mlrd.so'm), quyi texnologiyali tarmoqda 1005,3 mlrd.so'mlik (869,4 mlrd.so'm) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.


 Xorazm viloyati hududlari kesimida  
sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Shahar va tumanlar nomi	2020-yil yanvar-mart mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>2217,1</b>	<b>110,7</b>
Urganch shahri	395,2	108,5
Xiva shahri	28,3	114,1
<i>shundan tumanlar,</i>		
Bo'ot tumani	80,7	104,7
Gurlan tumani	101,8	104,1
Qo'shko'pir tumani	77,0	129,2
Urganch tumani	72,0	130,6
Hazorasp tumani	1017,2	111,9
Xonqa tumani	127,3	86,5
Xiva tumani	58,2	142,3
Shovot tumani	94,1	136,9
Yangiariq tumani	84,5	109,1
Yangibozor tumani	80,8	111,6



Yuqoridagi jadval tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Hazorasp tumani, Urganch shahri, Urganch tumani, Gurlan tumani, Shovot tumanlari sanoati yuqori darajada rivojlangan hududlar hisoblanadi. Ushbu shahar va tumanlarda asosan avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, kiyim ishlab chiqarish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyatlari yuqori darajada rivojlangan.



**Xorazm viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da**

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida, 2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan, Xiva tumanida 142,3 %, Shovot tumanida 136,9 %, Urganch tumanida 130,6 %, Qo'shko'pir tumanida 129,2 %, Xiva shahrida 114,1 %, Hazorasp tumanida 111,9 % va Yangibozor tumanida 111,6 % sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada o'sishi kuzatildi.

**SANOAT ISHLAB CHIQRISH FIZIK HAJM INDEKSI**  
2019-YIL YANVAR-MART OYLARIGA NISBATAN, % DA



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushga ega Hazorasp tumani (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 46,0 %), Urganch shahri (17,8 %), Xonqa (5,7 %), Gurlan (4,6 %), hamda Shovot (4,2 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Xiva tumani (2,6 %) hamda Xiva shahri (1,3 %) to'g'ri kelmoqda.



**2020-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish. (mlrd.so'm)**

Iqtisodiy faoliyat turlari:	2020-yil yanvar-mart	2019-yil yanvar-mart
<b>Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi</b>	<b>2217,1</b>	<b>1824,4</b>
<b>Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	<b>0,1</b>	<b>0,01</b>
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	0,1	0,01
<b>Qayta ishlash faoliyati</b>	<b>2096,9</b>	<b>1751,2</b>
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	290,4	273,9
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	60,2	37,9
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	605,8	518,1
Kiyim ishlab chiqarish	8,2	6,4
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	2,7	2,0
Yog'och va po'kak buyumlar, poxol va to'qish uchun materiallari, ishlab chiqarish	1,8	0,9
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	3,4	3,1
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,2	0,1






Iqtisodiy faoliyat turlari:	2020-yil yanvar-mart	2019-yil yanvar-mart
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,2	0,01
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	5,5	3,6
Asosiy farmasevtika	1,7	2,0
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	12,8	5,4
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	68,6	38,0
Metallurgiya sanoati	7,5	4,7
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	39,6	24,5
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,1	0,002
Elektr uskunalari ishlab chiqarish	7,6	4,4
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	26,9	36,4
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	916,2	758,7
Mebel ishlab chiqarish	6,6	4,2
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	26,1	22,9
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	4,9	4,1
<b>Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>105,1</b>	<b>62,8</b>
<b>Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish</b>	<b>15,0</b>	<b>10,4</b>

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 1352,6 mlrd.so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 119,7 foizni tashkil etdi.



Xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 321,3 mlrd.so'mni va 1031,3 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2019-yilning yanvar-yanvar oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 108,2 foiz va 123,8 foizni tashkil qildi. Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 61,0 foizni (2019 yil yanvar-mart oylarida 61,9 foiz) tashkil qildi.

**Xorazm viloyati bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
(2020-yilning yanvar-mart oylarida)

Shahar va tumanlar nomi	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1352,6</b>	<b>100</b>	<b>119,7</b>
Urganch shahri	172,5	12,8	89,0
Xiva shahri	25,2	1,9	89,8
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bo'ot tumani	47,1	3,5	147,9
Gurlan tumani	34,7	2,6	109,6
Qo'shko'pir tumani	13,0	1,0	98,0
Urganch tumani	56,5	4,2	129,9
Hazorasp tumani	842,3	62,3	129,1
Xonqa tumani	66,5	4,9	123,5
Xiva tumani	23,1	1,7	99,2
Shovot tumani	31,1	2,3	122,2
Yangiariq tumani	16,1	1,2	73,6
Yangibozor tumani	24,5	1,8	240,3

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Hazorasp tumaniga to'g'ri kelib, 62,3 % ni, shuningdek, Urganch shahri 12,8 % ni, Xonqa tumani 4,9 % ni, Urganch tumani 4,2 % ni hamda Bo'got tumani 3,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (119,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Yangibozor tumani

(240,3 %), Bo'got tumani (147,9 %), Urganch tumani (129,9 %), Hazorasp tumani (129,1 %), Xonqa tumani (123,5 %) hamda Shovot tumanida (122,2 %) qayd etildi.




**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020-yilning yanvar-mart oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>321,3</b>	<b>100</b>	<b>109,8</b>
Urganch shahri	106,0	33,0	90,3
Xiva shahri	9,2	2,9	99,1
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bo'ot tumani	30,2	9,4	152,9
Gurlan tumani	16,1	5,0	100,5
Qo'shko'pir tumani	6,6	2,1	83,4
Urganch tumani	38,5	12,0	128,3
Hazorasp tumani	11,0	3,4	75,4
Xonqa tumani	45,0	14,0	123,3
Xiva tumani	9,7	3,0	88,1
Shovot tumani	23,1	7,2	130,2
Yangiariq tumani	8,2	2,5	103,8
Yangibozor tumani	17,7	5,5	326,2

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Urganch shahriga to'g'ri kelib, 33,0 %,

shuningdek, Xonqa tumani 14,0 % ni, Urganch tumani 12,0 % ni, Bog'ot tumani 9,4 % ni hamda Shovot tumani 7,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Yangibozor tumani (326,2 %), Bog'ot tumani (152,9 %), Shovot tumani (130,2 %), Urganch tumani (128,3 %), Xonqa tumani (123,3 %) ni tashkil qildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020-yilning yanvar-mart oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1031,3</b>	<b>100</b>	<b>123,8</b>
Urganch shahri	66,5	6,4	90,7
Xiva shahri	16	1,6	85,2
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bo'ot tumani	16,9	1,6	139,8
Gurlan tumani	18,6	1,8	119,1
Qo'shko'pir tumani	6,3	0,6	120,1
Urganch tumani	18,0	1,7	133,3
Hazorasp tumani	831,3	80,6	130,2
Xonqa tumani	21,5	2,1	124,1
Xiva tumani	13,5	1,3	109,0
Shovot tumani	7,9	0,8	103,5
Yangiariq tumani	8,0	0,8	56,7
Yangibozor tumani	6,8	0,7	142,7

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Hazorasp tumaniga to‘g‘ri kelib, 80,6 %, shuningdek, Urganch shahri 6,4 % ni, Xonqa tumani 2,1 % ni, Gurlan tumani 1,8 % ni hamda Urganch tumani 1,7 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘shish sur‘atida viloyat o‘shish sur‘ati (123,8 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Yangibozor tumani (142,7 %), Bog‘ot tumani (139,8 %), Urganch tumani (133,3 %), Hazorasp tumani (130,2 %), hamda Xonqa tumani (124,1 %) ni tashkil qildi.



**Shahar va tumanlar bo‘yicha iste‘mol mahsulotlari  
ishlab chiqarishning o‘shish sur‘ati  
(2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da)**

Iste‘mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Yangibozor tumani (2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 240,3 %), Bog‘ot tumani (147,9 %), Hazorasp tumani (129,1 %), Urganch tumani (129,9 %), Xonqa tumani (123,5 %), Shovot tumani (122,2 %) Gurlan tumani (109,6 %) ga sezilarli darajada oshdi.

Qolgan Yangiariq tumani, Urganch shahri, Xiva shahri, Qo‘shko‘pir tumani, Xiva tumanlarida o‘shish sur‘ati 100 % dan kamaygani kuzatildi.





**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**  
(2020-yil yanvar-mart oylarida, ming so'm)

Shahar va tumanlar nomi	Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da	Iste'mol mahsulotlari	2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1186,1</b>	<b>108,9</b>	<b>723,6</b>	<b>117,8</b>
Urganch shahri	2744,2	106,9	1198,0	87,7
Xiva shahri	306,7	112,4	273,2	88,4
<i>shundan tumanlar,</i>				
Bo'ot tumani	492,2	102,8	287,0	145,3
Gurlan tumani	688,5	102,6	234,8	108,0
Qo'shko'pir tumani	448,2	126,9	75,0	96,2
Urganch tumani	363,1	128,2	285,7	127,5
Hazorasp tumani	4098,4	110,0	3393,5	126,8
Xonqa tumani	685,1	85,1	358,0	121,6
Xiva tumani	401,2	139,9	159,5	97,5
Shovot tumani	555,4	134,6	183,2	120,1
Yangiariq tumani	730,5	107,4	139,5	72,5
Yangibozor tumani	927,9	109,8	281,1	236,4

Yuqoridagi tahliliy jadvalga asosan joriy yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 1186,1 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,9 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2019-yil yanvar-mart oylarida Hazorasp tumani 3432,9 ming so'mdan 2020-yil yanvar-mart oylarida 4098,4 ming so'mga, Urganch shahri 2467,8 ming so'mdan 2744,2 ming so'mga, Shovot tumani 515,0 ming so'mdan 555,4 ming so'mga




oshganligi kuzatildi. Sanoati rivojlangan Hazorasp tumanida (4098,4 ming so‘m), Urganch shahrida (2744,2 ming so‘m)ga o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (1186,1 ming so‘m) yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Aholi jon boshiga iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi aholi jon boshiga iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish viloyat bo‘yicha 723,6 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 117,8 foizga o‘shishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, 2019-yil yanvar-mart oylarida Hazorasp tumani 2744,8 ming so‘mdan 2020 yil yanvar-mart oylarida 3393,5 ming so‘mga, Shovot tumani 153,6 ming so‘mdan 183,2 ming so‘mga, Gurlan tumani 129,0 ming so‘mdan 234,8 ming so‘mga Xonqa tumani 235,7 ming so‘mdan 358,0 ming so‘mga o‘sgani kuzatildi.



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda  
kichik biznesning ulushi**  
(2020-yil yanvar-mart oylarida, % da)



Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Xiva shahri (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Xiva tumani (99,3 %), Yangibozor tumani (79,0 %), Xonqa tumani (74,9 %), Bog‘ot tumani (72,6 %), Urganch tumani (66,5 %) ni tashkil qildi.


Viloyatda yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 696,9 mlrd.so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 31,4 % ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Hazorasp tumani (3,6 %), Yangiariq tumani (22,8 %),

Qo'shko'pir tumani (23,3 %), sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 244,1 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 11,0 % ni tashkil etdi.

**Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra)**



Viloyatda 3,4 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2,0 mingtasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 60,3 %) Urganch shahriga, 726 tasi (21,5 %), Urganch tumaniga 390 tasi (11,5 %),

Xiva shahriga, 323 tasi (9,6 %), Xonqa tumaniga 307 tasi (9,1 %), Xiva tumaniga 292 tasi (8,6 %) to‘g‘ri kelmoqda. 2020-yil yanvar-mart oylarida viloyatda 397 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi. Ulardan eng yuqori bo‘lgan Urganch shahrida 71 ta, Xonqa tumanida 49 ta, Yangibozor tumanida 43 ta, Qo‘shko‘pir tumanida 41 ta va 34 ta Xiva shahrida tashkil etilgan.

### Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi bo‘yicha 26 ta loyiha mavjud bo‘lib, ular tomonidan joriy yilning yanvar-mart oylarida 20,6 mlrd.so‘mlik import o‘rnini bosuvchi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Mazkur korxonalar tomonidan 100 ming (AQSH) dollarlik mahsulot eksport qilinib, 60 ta yangi ish o‘rinlari yaratilgan.

Dastur bo‘yicha shahar va tumanlar bo‘yicha tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, Gurlan tumanida 2 ta loyihada 0,1 mlrd.so‘mlik, Urganch tumanida 4 ta loyihada 1,8 mlrd.so‘mlik, Hazorasp tumanida 5 ta loyihada 12,6 mlrd.so‘mlik, Yangiariq tumanida 4 ta loyihada 0,9 mlrd.so‘mlik, Urganch shahrida 9 ta loyihada 5,2 mlrd.so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Qolgan Xonqa tumanida 1 ta va Xiva shahrida 1 ta loyiha bo‘yicha yil yakuni bilan ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilishi rejalashtirilgan.

	<i>2020-yil yanvar-mart</i>	<i>2019-yil yanvar-mart</i>
Loyihalar soni, birlik	26	16
Korxonalar soni, birlik	17	8
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd.so‘m	20,6	5,6
Eksport qilingan mahsulot hajmi mln AQSH dollar	0,1	0,0
Yaratilgan yangi ish o‘rinlari, birlik	60	0

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi  
 “Sanoat statistikasi” bo‘limi  
 Aloqa telefoni (62) 224-64-99